



UDK:811.512

Zarina DJO'RAYEVA,

O'zMU mustaqil tadqiqotchisi

E-mail:zarina@nuu.uz

Raima SHIRINOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti professori, f.f.d

O'zMU professori N.Sa'dullayeva taqrizi asosida

GASTRONOMIK DISKURS MADANIY KOD SIFATIDA

Аннотация

Maqolada gastronomik diskursning madaniy kod sifatida qo'llanilishi, oziq-ovqat nomlari bilan bog'liq leksik birliklar va frazeologizmlarning turli tillardagi tadqiqoti tahlil qilingan. O'zbek olimlari bu sohada asosan oziq-ovqat va taom nomlarining tarixiy ildizlari, ularning etimologiyasi, stilistik xususiyatlari va tarjimasiga oid masalalarni o'rganganlar. Ular ushbu nomlarning shakllanishida ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillarning ta'sirini yoritib berishgan.

Xorij olimlari esa oziq-ovqatga oid leksik birliklarni lingvomadaniy va lingvokognitiv nuqtai nazardan tahlil qilib, ularning til va madaniyat o'rtasidagi aloqasini ko'rsatishgan. Shuningdek, maqolada glyuttonomlar tushunchasiga alohida e'tibor qaratilib, ular tildagi implitsit axborot tashuvchi birliklar sifatida izohlangan. Glyuttonomlar orqali xalqlarning o'zaro savdo, madaniy va tarixiy aloqalari ifodalanib, qaysi xalq qaysi davlat va millatlar bilan mustahkam munosabatda bo'lganini aniqlash mumkinligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Gastronomik diskurs, frazeologizmlar, glyuttonomlar, lingvomadaniyatshunoslik, lingvokognitiv tahlil, etimologiya, stilistika, implitsit axborot.

ГАСТРОНОМИЧЕСКИЙ ДИСКУРС КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОД

Аннотация

В статье анализируется использование гастрономического дискурса в качестве культурного кода, исследуются лексические единицы и фразеологизмы, связанные с названиями пищевых продуктов в различных языках. Узбекские учёные в этой области в основном изучали исторические корни названий пищи и блюд, их этимологию, стилистические особенности и вопросы перевода. Они освещали влияние социальных, культурных и исторических факторов на формирование этих названий.

Зарубежные исследователи, в свою очередь, рассматривали лексические единицы, относящиеся к пище, с лингвокультурологической и лингвокогнитивной точек зрения, демонстрируя их связь между языком и культурой. В статье также уделяется особое внимание понятию глуттонимов, которые объясняются как единицы, несущие имплицитную информацию в языке. Отмечается, что через глуттонимы выражаются торговые, культурные и исторические связи народов, позволяя определить, какие народы и государства имели тесные взаимоотношения.

Ключевые слова: Гастрономический дискурс, фразеологизмы, глуттонимы, лингвокультурология, лингвокогнитивный анализ, этимология, стилистика, имплицитная информация.

GASTRONOMIC DISCOURSE AS A CULTURAL CODE

Annotation

This article analyzes the use of gastronomic discourse as a cultural code, examining lexical units and phraseological expressions related to food names in different languages. Uzbek scholars have primarily studied the historical roots of food and dish names, their etymology, stylistic features, and translation issues. They have highlighted the influence of social, cultural, and historical factors on the formation of these names.

Foreign researchers, on the other hand, have examined food-related lexical units from linguistic-cultural and cognitive-linguistic perspectives, demonstrating the connection between language and culture. The article also pays special attention to the concept of gluttonyms, which are explained as linguistic units carrying implicit information. It is emphasized that gluttonyms reflect the trade, cultural, and historical ties between nations, allowing for the identification of which peoples, states, and nations maintained strong relationships.

Key words: gastronomic discourse, phraseological expressions, gluttonyms, linguistic-cultural studies, cognitive-linguistic analysis, etymology, stylistics, implicit information.

Kirish. Dunyo tilshunosligida va o'zbek tilshunosligida oziq-ovqat bilan bog'liq turli tadqiqotlar mavjud bo'lib, taomlarning nominatsiyasi, etimologiyasi, lingvomadaniy xususiyatlari, grammatik aspektlari xorij va o'zbek olimlarining ilmiy izlanishlarida "glyuttonomlar", "gastronomik diskurs", "kulinariya leksemalari" tarzida turli darajada tadqiq qilingan. Jumladan rus olimi E.Gashimov ingliz tilidagi oziq-ovqat bilan bog'liq lingvomadaniy kodni ifodalovchi frazeologik birliklarni lingvistik jihatdan tahlil qilgan. Masalan, olim ingliz tilidagi "cheese smb off" frazeologik birligi "kimdandir jahli chiqmoq" ma'nosini anglatishini ta'kidlaydi, o'zbek tilida esa inglizcha "cheese-pishloq" oziq-ovqat nomi orqali ifodalangan mazmunni "arpa" leksemasi orqali ya'ni "arpasini xom o'rmoq" muqobili bilan berish mumkin. Olim ingliz tilidagi to eat -yemoq fe'li bilan tuzilgan bir nechta frazeologik birliklarni tadqiq qilib, "to eat humble pie" frazeologizmi xatosini qabul qilib, "kechirmoq"

ma'nosida qo'llanilishini qayd etadi. Bizningcha, bu iborani o'zbek tilida "bir qoshiq qonidan kechmoq" iborasi bilan berish o'rinli.

Adabiyotlar tahlili. Rus tilshunosi ingliz tilidagi to eat fe'li bilan bog'liq yana bir ibora "eat one's heart out"- "hasaddan ich-etini yemoq" ma'nosini angatishi, eat one's words (to take back something that one has said) ya'ni aytgan so'zidan qaytmoq kabi turlicha mazmun ifodalashga xizmat qilgan "yemoq" fe'li bilan aloqador iboralarining lingvomadaniy kod vazifasini o'tashiga doir ilmiy qarashlarini bayon qiladi [7].

E.Gashimovning ilmiy izlanishi asosan ingliz tilidagi frazeologik birliklar tadqiqiga bag'ishlangan, biroq ingliz tilidagi gastronomik diskursni ifodalovchi barqaror birliklarni o'zbek tilidagi ekvivalentlarini o'rganishni nazarda tutmaydi. Biz bu o'rinda o'z ilmiy qarashlarimizga asoslangan holda o'zbek

tilida ham oziq-ovqat komponentli frazeologik birliklarni keltirib o'tishni joiz topdik.

Alisher Navoiy ijodida ham oziq-ovqat bilan aloqador turli nomlarni uchratish mumkin. Tadqiqotchi Q.Ro'ziyevning ilmiy izlanishlarida A.Navoiy asarlarida qo'llangan oziq-ovqat nomlari va ularning qaysi tillardan o'zlashganligiga doir ma'lumotlar qayd etiladi [3]. Tadqiqotchi shoir ijodida qo'llangan taom yoki oziq-ovqatga aloqador til birliklarini miqdor jihatdan solishtirib, A.Navoiy ijodida turkiy tildagi oziq-ovqat nomlari salmoqli ekanligini aniqlaydi. Keyingi o'rinda esa fors tilidan o'zlashgan taom va unga doir nomlar turadi. B.Bafoyev A.Navoiy asarlari leksikasini tahlil qilgan holda, shoir 5489 ta taomga aloqador forsiy so'zlarni qo'llagan deb ko'rsatadi [6]. Shuningdek Navoiy arabcha, xitoycha va hindcha oziq-ovqat mahsulotlari nomlaridan ham faol foydalangan bo'lib, bu XV-XVII asrlarda turkiy xalqlarning arab, fors, xitoy va hind xalqlari bilan madaniy aloqalari kuchli bo'lganligini ko'rsatadi. Chunki taom nomlariga oid leksemalar savdo aloqalari yoki siyosiy jarayonlar vaqtida o'zlashib, Navoiy davri tilida keng iste'molda bo'lganligini ko'rsatadi. Turli tillardan turkiy tilga o'zlashgan taom nomlari o'sha xalqning madaniyati va urf-odatlariga doir implicit axborotlarni o'zida ifodalab turadi. Chunki tayyorlangan taom turi, uning nomi ham ma'lum millatning turmush tarzi, dunyoqarashini yaqqol aks ettira oladi. Shu nuqtai nazardan ham o'zbek xalqida "Sen menga nima yeyishingni ayt, men senga kimligingni aytaman" degan maqollar bejizga qo'llanilgan.

M.Komilovning ilmiy izlanishlarida esa xitoy tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan oziq-ovqat nomlari tahlil qilinadi [1]. Tadqiqotda savdo karvonlari orqali oziq-ovqat mahsulotlarining Xitoydan Turkistonga va aksincha Turkistondan Xitoyga olib ketilishi natijasida xitoy tilidan turkiy tillarga oziq-ovqat leksikalarining o'zlashganligi xususidagi mulohazalar bayon qilingan. A.Madvaliyev muharrirligida nashr qilingan o'zbek tilining izohli lug'atida ham 17 ta xitoy tilidan o'zlashgan so'zlar aniqlangan bo'lib, tadqiqotda ulardan beshtasi oziq-ovqat nomlari ekanligi keltirilgan. Biz bugungi kunda hatto xitoycha ekanligi hayolimizga ham kelmaydigan, kundalik turmush tarzimizda keng qo'llanadigan lag'mon, manti, choy leksemalari aslida xitoycha so'zlar bo'lib, taomlarning tayyorlanish texnologiyalari zamon va makon ta'siri natijasida o'zgarishlarga uchrashi mazkur glutonimlarni o'zbekcha so'zdek qabul qilishimizga asosiy sababdir deb ta'kidlaydi M.Komilova [1]. Taom nomlarining bir tildan ikkinchi tilga o'zlashishi kabi lingvomadaniy jarayonlar orqali ikki millatga mansub til vakillarining o'zaro savdo va madaniy aloqalari uzoq o'tmishga borib taqalishiga doir tarixiy haqiqatlarning ham guvohi bo'lish mumkin.

R.Nabiyeva o'zbek tilida oziq-ovqat o'zlashmalarining genetik manbalarini o'rganib, glyuttonimlarning o'zlashma qatlami shakllanishida asosan arab va fors tillarining ustunligi, shuningdek bu o'rinda rus tilining ham ahamiyatini alohida qayd etib o'tadi [15]. Tadqiqotchi I.Sindorov [10], M.Xolmuradova [13], B.Abdushukurovlarining [5] tarixiy yozma yodgorliklarda uchrovchi oziq-ovqat nomlarining etimologik xususiyatlarini ochib beruvchi ilmiy tadqiqotlariga urg'u berib, T.Tog'ayev A.Navoiy asarlarida qo'llangan taom nomlarini genetik tavsif qilganini ta'kidlaydi. T.Tog'ayevning ilmiy qarashlariga ko'ra shoir ijodida qo'llangan 60 ta taom nomlarining yarmi turkiy so'zlar bo'lsa, qolgan qismi esa fors, arab, xitoy va hind tillaridan o'zlashgan taom nomlari hisobiga to'g'ri keladi [11]. R.Nabiyeva esa glyuttonik o'zlashmalarining genetik manbalarini tahlil qilishda O'zbek tilining izohli lug'atidan o'rin olgan 579 ta oziq-ovqat nomlarini etimologik jihatdan tadqiq qilib, ularning yarmi o'z qatlamga, qolgan yarmi o'zlashma qatlamga mansubligini aniqlaydi. Tadqiqotchi fors-tojik tilidan o'zlashgan glyuttonimlarning asosiy qismi meva va sabzavot nomlari deb ko'rsatadi. Arab, rus, fransuz, ingliz, italyan, nemis va lotin tillaridan o'zbek tiliga o'zlashgan taom nomlari son jihatdan golland, polyak, gruzin, rumin, xitoy, yapon, venger kabi tillardan o'zlashgan glyuttonimlardan yuqori ekanligini isbotlab berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar orqali o'zbek xalqining uzoq o'tmishdan beri dunyoning qaysi xalqlari bilan madaniy va iqtisodiy aloqada bo'lganligini ham anglash qiyin emas. R.Nabiyeva o'tgan asr davomida oziq-ovqat o'zlashmalarining salmog'i oshishida rus tili

vosita til vazifasini bajargani, bugungi kunda esa ingliz tilidan o'zlashgan tezpishar taom nomlari o'zbek tili vakillari nutqida faol qo'llanayotganini ta'kidlab, hot-dog, gamburger, chizburger, naggets, strips kabi taom nomlari va ularning tayyorlanish usullariga qisqacha to'xtalib o'tadi. Shuningdek, tadqiqotchi o'zbek tilida afrikacha "moxito", italyancha "espresso" va "kapuchino", ispancha "ananas", "banan", "kokos", "mandarin", rus tili orqali fransuz tilidan o'zlashgan "baton", "bulyon", "vanillin", "sirop", "krem", "kompot", kabi 31 ta oziq-ovqat nomlarini sanab o'tadi. Bu kabi tadqiqotlar glyuttonimlarning etimologiyasi bilan qiziquvchi izlanuvchilar hamda tarjimashunoslar uchun ham muhim ahamiyat kasb etib, tarjima jarayonlarida xorijiy tilda qo'llangan taom nomlarini o'zbek tiliga o'zlashgan shaklida berish imkoniyatini beradi. Chunki aslyatda qo'llangan oziq-ovqat mahsulotlari makon va zamon ta'sirida o'zbek tilida ayrim shakliy o'zgarishlarga uchrash ehtimoli yuqori.

F.Nasimovning "O'zbek mumtoz adabiy asarlarida uchraydigan taom nomlarining leksik-semantik xususiyatlari" maqolasida mumtoz adabiy asarlarda uchraydigan oziq-ovqat, taom nomlarining leksik-semantik va etimologik xususiyatlari A.Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Vaqqfiya", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mahbub ul-qulub" asarlari va Muhammad Yusuf Chingiyning "Kelurnoma" asari misolida tadqiq qilingan. Izlanuvchi asosan un va xamirdan tayyorlanadigan "non", "patir", "chalpak", "qatlama", "manti", "sutmoch" (ugra osh), "ushoq osh", "umoch" kabi glyuttonimlarning mumtoz asarlarda qo'llanilishi, turli lug'atlarda ularga keltirilgan izohlarga atroflicha to'xtalib o'tadi. F.Nasimova mumtoz asarlarda qo'llangan taom nomlarini hozirgi zamon tili bilan qiyosiy tahlil qilish maqsadida Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati"dan ham samarali foydalangan [2].

M.Yusupovning "Oziq-ovqat mahsulotlari nomlari bilan bog'liq urducha va o'zbekcha paremiyalarning leksik-semantik tahlili" maqolasida maqollar tarkibidagi "sut", "ovqat", "piyoz", "sho'rva", "moy", "baqlajon", "luqma", "olxo'ri", "guruch", "no'xot", "shirguruch", "limon", "saryog" kabi leksemalarning kvantitativ tahlili berilgan. Tahlilga ko'ra "sut", "ovqat", "piyoz", "sho'rva", "moy" komponentli maqollar har ikki tilda mavjud ekanligi, qolgan oziq-ovqat nomlari esa urdu tilidagi maqollarda faol qo'llangan holda, o'zbekcha maqollar tarkibida uchramasligi aniqlangan. Tadqiqotchi tahlilga tortilgan har bir urducha maqolni izohlab, agar mavjud bo'lsa o'zbek tilidagi ekvivalentini ham keltirib o'tgan [4].

Tahlil va natijalar. Oziq-ovqat nomlari tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ichida N.Ikromovning hissasini alohida qayd etib o'tish lozim. Chunki N.Ikromova ilmiy izlanishlarida oziq-ovqat nomlarini faqat leksik-semantik jihatdan tahlil qilib qolmay, balki ularning tarixiy ildizlariga ham nazar tashlaydi. Bu o'rinda olim M.Koshg'ariyning "Devoni lug'ati turk" asariga murojaat qilib, asarda 145 ta oziq-ovqat bilan bog'liq til birliklari uchrashini ta'kidlaydi. N.Ikromova mazkur leksemalarni arxaizm va tarixiy so'zlarga bo'lib o'rganganda, ulardan 26 tasi arxaizmlar, qolgan qismi esa tarixiy so'zlar sirasiga kirishini aniqlaydi. "Devoni lug'ati turk"da qayd etilgan oziq-ovqat leksemalaridan 6 tasi bugungi kungacha saqlanib qolgan, —deb qayd etadi tadqiqotchi. Shunindek tahlillarda Buxoro, Samarqand, Andijon, Marg'ilon, O'sh hududlarining oziq-ovqat va taom nomlaridan foydalanganligini ko'rsatadi. Biroq M.Xudayorovning ilmiy tadqiqotida N.Ikromova faqat Toshkent hududining taom nomlarini tadqiq qilgan, — degan yangilish mulohazalarni uchratdik [14].

N.Ikromova ilmiy mulohazalarini bayon qilishda "kushanya" tushunchasini qo'llab, "i zdes i daleye v tekste pod slovom "kushanya" ponimayutsya razlichniye gustniye i jidkiye blyuda, goryachiye i xolodniye zakuski, zagotovlyayemye vprok vidi provizii, napitki, razniye sorta pechenogo xleba i dr" [8], — tarzida izoh keltiradi. Olima oziq-ovqat nomlarining tarixi, grammatik strukturalari, nomlanish prinsiplari xususida atroflicha mulohazalar yuritgan. U oziq-ovqat nomlarining boyish manbalarini ikki guruhga ajratadi:

- 1) Og'zaki nutq;
- 2) Yozma manbalar, badiiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari.

Ishda shuningdek, 1959-yilda chop qilingan o'zbekcha-ruscha lug'atda 117 ta oziq-ovqat nomi, 1981-yilda nashr qilingan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da 150 ta shu turdagi til birliklari uchrashini qayd etib, tilda hali lug'atlarga kiritilmagan taom nomlarining ko'pligi va ularni to'plash, tayyorlanish usuli, paydo bo'lish tarixi kabi turli aspektlarni tadqiq qilish ehtiyoji mavjudligi ta'kidlanadi. N.Ikromova oziq-ovqat nomlarini bir ma'noli va ko'p ma'noli turlarga bo'lib, ayrim leksemalarda ma'noning torayishi yoki aksincha, kengayishi holatlarini kuzatadi. O'zbek tilidagi oziq-ovqat nomlarining qo'llanish chostatasi hisoblanganda esa, "non" va "osh" leksemalari eng keng qo'llanuvchi birliklar ekanligi aniqlangan.

N.Ikromova oziq-ovqat nomlarini grammatik strukturasiga ko'ra sodda va qo'shma turlarga ajratadi.

N.Ikromova XX asr o'zbek oziq-ovqatga doir terminlarning leksik tarkibini tahlil qilib, quyidagicha klassifikatsiya qiladi:

- 1) Turkiy oziq-ovqatga oid til birliklari — asosan — "moch" va —"ma" suffikslari bilan yasali: qovurmoch, dimlama;
- 2) Fors-tojikcha oziq-ovqatga oid til birliklari — asosan — "ob" va —"shir" suffikslari bilan yasaluvchi shirguruch, mastava;
- 3) arab tilidan o'zlashgan gastronomik birliklar: kabob, patir, xamir;

4) uyg'ur-xitoy tilidan o'zlashgan taom nomlari: lag'mon, manpar, manti;

5) rus tilidan va rus tili orqali boshqa tillardan o'zlashgan oziq-ovqat nomlari.

Leksik-semantik jihatdan esa:

- 1) Barqaror taom nomlari: non, ovqat kabi;
- 2) Tarixiy taom nomlari: tutmoch, qavut;
- 3) Arxaizmlar: mun — hozirgi shakli sho'rva, yozlomoch — hozirgi shakli xamir;
- 4) Neologizmlar: ragu, rulet kabi.

N.Ikromovanning ilmiy qarashlari bugungi kunda glyuttonimlar ustida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun muhim ahamiyat kasb etib, oziq-ovqat nomlari bilan bog'liq til birliklarining etimologiyasidan to'nomlanish tamoyillari, grammatik strukturalari kabi jihatlarini o'rganishda ham asosiy yo'riqnoma vazifasini o'taydi. Tadqiqotda tarkibida oziq-ovqat nomlari mavjud bo'lgan "O'zing pishirgan osh, aylanib ham, o'rgilib ham yeysan", "Yopig'lik qozon, yopig'ligicha qolsin" kabi maqol, matal, ibora ko'rinishidagi barqaror birliklar xususida ham ayrim mulohazalar bayon qilingan. Har bir tilda xalqning turmush-tarzi, urf-odat va mentalitetini o'zida aks ettirib keluvchi oziq-ovqat komponentli paremiyalar mavjud bo'lib, ular bir-biridan lingvomadaniy jihatdan farqlanadi. Masalan, o'zbek tilida "Uzumini yegin-u, bog'ini surushtirma", "Sabr qilsang, o'rada sho'rva pishar" kabi maqollar ham uchraydiki, ularning xorijiy tilda qanday berilishini tilshunos va tarjimashunoslar uchun savol tug'diradi. Tarjimashunoslikning shu kabi lingvokulturologik muammolariga tadqiqotimizning keyingi bo'limlarida batafsil to'xtalib o'tamiz.

M.Xudayorova esa o'zbek tilidagi taom nomlarini Qoraqalpog'iston hududi materiallari misolida lingvistik tahlil qiladi. Olima taom nomlarining tarixiy ildizlari, leksik qatlamlari, ularning leksik-semantik klassifikatsiyasi, nominatsiyasi, taom nomlarining stilistik xususiyatlari va ularning morfologik, semantik va sintaktik yasaliush usullarini chuqur tadqiq qiladi. Tadqiqotchi dastlab termin tushunchasiga atroflicha to'xtalib, ishda glyuttonimlar ham leksema, biroq ular oziq-ovqat sanoati va pazandachilik kabi sohalarida termin sanaladi, — deb ta'kidlaydi. M.Xudayorova o'z dissertatsiyasida "taom nomlari" atamasini faol qo'llaydi [14]. Olima taom nomlarini kundalik tayyorlanadigan taomlar, bayram va marosimlarda tayyorlanadigan taomlar, masallig'i kamyob taomlar, kasallik va betoblikda tayyorlanadigan taomlar kabi guruhlariga bo'lib tadqiq qiladi. Shuningdek, tadqiqotda taom nomlarining o'zlashmalar hisobiga boyish yo'llari, Qoraqalpog'istonda yashovchi aholi marosimlari bilan bog'liq taom nomlari, taom nomlarining hududda yashovchi boshqa: qozoq, turkman tillaridagi taom

nomlari bilan o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilingan. Qoraqalpog'iston hududi taom nomlarining tarixiy ildizlari M.Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asaridagi taom nomlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, XII asrda tayyorlangan taomlar hozirgi kunda ham nomi o'zgargan holda Qoraqalpog'istonda istiqomat qiluvchi xalq kundalik turmushida uchrashi aniqlangan. Bu kabi tadqiqotlar taom nomlari misolida o'zbek tilining tarixiy ildizlari, tilning boyish manbalari va qardosh xalq tillari bilan o'xshash va o'ziga xos jihatlarini yoritib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotchilar taom nomlari bilan bog'liq masalalarda ba'zan mushtarak mulohazalarni bayon qilsa, ayrim holatlarda esa munozarali o'rinlar ham uchraydi. Xususan, M.Komilovanning "O'zbek tiliga xitoy tilidan o'zlashgan oziq-ovqat nomlari tahlili" maqolasida lag'mon xitoy tilidan o'zlashgan taom nomi deb ko'rsatilsa, G.Odilovanning "O'zbek-ingliz milliy taom nominantlarining qiyosiy stilistikasi va tarjima muammolari" maqolasida [9] lag'mon qozoq oshxonasidan kirib kelgan taom deb ta'kidlanadi. Bu o'rinda lag'mon leksemasining "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilgan ta'rifiga to'xtalishni joiz topdik:

LAG'MON [xit. "cho'ziq xamir"] Xamirni cho'zib yoki uzun ingichka kesib tayyorlanadigan, yuziga qayla solib yeyiladigan ovqat. Kumush opam ham shu yerda edilar.. Lag'monni uncha xushlamas ekanlar, shekilli, yaxshi yemadilar. A. Qodiriy, O'tgan kunlar. G'ulomjon oshxonaga kirib, cho'zma lag'mon yedi. M.Ismoil, Farg'ona tong otguncha [12].

Izohdan ma'lum bo'ladiki, lag'mon so'zi xitoy tilidan o'zlashgan so'z, demak tadqiqot jarayonida izohli lug'atlarga tayangan holda fikr bildirish yuqoridagi kabi muzokarali holatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

G.Odilovanning ilmiy izlanishlarida o'zbek va ingliz tillaridagi glyuttonimlar yasaliushiga ko'ra sodda va qo'shma turlarga bo'lib o'rganiladi. Olima o'zbekcha va inglizcha taom nomlarini hosil qilishda bitishuv va suffiks qo'shish usullari asosiy o'rin tutishini ta'kidlaydi. U tadqiqotlarida taomshunos olim M.Karimovning ilmiy qarashlariga tayangan holda o'zbek va ingliz tilidagi glyuttonimlarni qanday mahsulotdan tayyorlanishiga ko'ra nomlangan taomlar, tasodifiy antiqa taomlar, ma'lum ijtimoiy qatlam nomi bilan atalgan taomlar, and bog'lovchisi bilan yasalgan taomlar, toponimik xususiyatiga ko'ra nomlangan taomlar, qaysi oshxona anjomida tayyorlanishiga ko'ra nomlangan taomlar, ma'lum narsa-predmetga o'xshashligiga ko'ra nomlangan taomlar va ikki mustaqil taom kombinatsiyasi yoki bir-birining tayyorlanish texnologiyasida pishirilishiga ko'ra nomlangan taomlar kabi semantik guruhlanib tahlil qilingan. Mazkur glyuttonimlarni tarjima qilishda G.Odilova transkripsiya va transliteratsiya, qisman transkripsiya, izohli transkripsiya, kalkalash, adaptatsiya, perefrasa, generalizatsiya, konkretizatsiya va tushirib qoldirish usullaridan foydalanishni taklif qiladi. Olimaning taom nomlari va ularning tarjimasiga doir taklif va mulohazalari gastronomik turizmni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, sohadagi taom nomlarini asosan transliteratsiya usulida berish orqali sayyohlar uchun taom haqida tushuncha hosil qilishda hech qanday samara bermaydigan usullardan voz kechish orqali gastronomik turizm sohasiga yangicha yondashuvlar orqali sayyohlar oqimining oshishiga xizmat qiladi [9].

Oziq-ovqat nomlari bilan bog'liq leksik birliklar, frazeologizmlar xorij va o'zbek olimlarining ilmiy tadqiqotlarida turli jihatlardan o'rganilgan bo'lib, o'zbek olimlari taom va oziq-ovqat nomlarining tarixiy ildizlari, etimologiyasi, stilistikasi hamda uning tarjimasi bilan bog'liq masalalarni tahlil qilgan bo'lsa, xorij olimlari esa lingvomadaniy, lingvokognitiv jihatlarini tadqiq qilgan. Shu nuqtai nazardan glyuttonomlar o'zida lingvistik va madaniy implitsit axborotlarni hamda tilning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan boshqa til va xalqlar haqidagi xabarni ham namoyon qiladi. Chunki tilda boshqa tildan o'zlashgan taom nomlari xalqning qaysi davlat va millatlar bilan savdo va madaniy aloqalar olib borganligini ko'rsatib beradi.

ADABIYOTLAR

1. Komilova M. O'zbek tiliga xitoy tilidan o'zlashgan oziq-ovqat nomlari tahlili //Turfa madaniyatlar, millat, tillarni qiyosiy-tipologik tadqiqotlar orqali anglash 15-xalqaro ilmiy anjuman. —B.54-56.

2. Nasimova F. O'zbek mumtoz adabiy asarlarida uchraydigan taom nomlarining leksik-semantik xususiyatlari. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. Issue -1.№5 (2023) / ISSN 2181-3701. –B. 25-32.
3. Ro'ziyev Q. Alisher Navoiy Asarlarida oziq-ovqat nomlari va ularning berilishi. Tech-Fest. –2022. International multidisciplinary Conference. England. –4-6.
4. Yusupova M. Oziq-ovqat mahsulotlari nomlari bilan bog'liq urducha va o'zbekcha paremiyalarning leksik-semantik tahlili. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. №5. –B. 34-40.
5. Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси. – Тошкент: Академия, 2008.
6. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. - Тошкент: Фан, 1983. –Б.154.
7. Гашимов Э. Англоязычный лингвокультурный алиментарный код: Лингвосемиотика фразеологизмов как единиц образной семантики. Языкознание. ISSN 1997-2911. № 2 (60) 2017. –С.110-113.
8. Икрамова Н. Узбекская кулинарная лексика: Дис. ... канд.филол.наук. –Ташкент, 1983. –С.2.
9. Одилова Г. Ўзбек-инглиз миллий таом номинантлари киёсий стилистикаси ва таржима муаммолари // Филология масалалари, 2019. – Vol. 29 No. 2. – Б. 69-79.
10. Синдоров Л.К. “Хибатул ҳақойиқ” лексикаси: филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. автореф. – Жиззах: 2021.
11. Тоғаев Т. Алишер Навоий асарлари тилидаги таом номлари // Ўзбекистонда хорижий тиллар, 2019. – №5. – Б. 26.
12. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 493.
13. Холмурадова М.Ф. “Қутадғу билиг” лексикаси: филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. автореф. – Тошкент: 2019.
14. Худаярова М. Ўзбек тилдаги таом номларининг лингвистик таҳлили (Қорақалпоғистон ҳудуди материаллари асосида) филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. –Б.11.
15. https://uza.uz/oz/posts/ozbek-tilida-oziq-ovqat-ozlashmalarining-genetik-manbalari-haqida_620288